



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

3. Qodiriy A. O'tgan kunlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashr., 1974. – B. 224.
4. Homidiy H. Ko'hna Sharq darg'alari. – Toshkent: "Sharq" NMAK, 1999. – B. 323.

RADIFNING BAYT KOMPOZITSIYASIDAGI O'RNI

Hamroyeva Orzigul Jalolovna

Filologiya fanlari doktori, professor v.b. TDO'TAU

arguvon87mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/LMAL9438

Annotatsiya. *G'azal qurilishidagi har bir detal shoir badiiy tafakkuri mahsuli bo'lib, bayt va misralarda o'z vazifasiga ega. Shakl va mazmun mutanosibligini ta'minlovchi, she'rni ma'lum tizim asosida ushlab turuvchi kompozitsiya shoir badiiy maqsadi bilan birga she'r badiiyatini ta'minlab beradi. Shu sababli poetikaga oid risolalar bu qonuniyatlar va ularning amaliy tatbig'i masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. She'r kompozitsiyasida qofiya va vaznning o'rni muhim bo'lganidek, takrorlarga aslanuvchi radif va hojibning ishtiroki ham ahamiyatli. Maqolada Alisher Navoiy lirikasi misolida radifning bayt kompozitsiyasidagi o'rni tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *radif, hojib, qofiya, bayt, misra, harora she'r, kompozitsiya.*

THE PLACE OF THE RADIF IN THE COMPOSITION OF THE BYTE

Abstract. *This article examines the construction of a ghazal, where every detail reflects the poet's artistic vision and serves a specific function within the stanzas and verses. The composition, which maintains a balance between form and content, adheres to a specific system that aligns with the poet's artistic objectives, thus contributing to the overall artistry of the poem. As such, treatises on poetics place particular emphasis on the laws governing these elements and their practical application. In addition to the importance of rhyme and aruz in poem composition, the role of radif and hajib, which rely on repetition, is equally crucial. The article explores the function of radif in verse composition through the analysis of Alisher Navoi's lyrics.*

Keywords: *radif, hajib, rhyme, verse, verse, harora poem, composition.*

Radif bayt misralari oxiridagi takrorlanuvchi so'z bo'lib, ohangdoshlikni ta'minlab beruvchi asosiy unsurlardan biridir. Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asarida, Atoullloh Husayniyning "Risolai dar qavoyidi ilmi qavofi" asarining 9-qismida, Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq us-sehr" asarida muraddaf san'ati sharhida [Rashididdin Vatvot, 1985, 164], Nosiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" asarining 2-qism 6-faslida "Qofiya harflari, harakatlari va radif zikri fors olimlari nazdida" faslida [Tusiy, 1992, 122] radif va uning qo'llanishi borasida ilmiy-nazariy fikrlar keltirilgan bo'lib, bu nazariy fikrlar keyinchalik turkiy qofiyashunoslik uchun ham asos vazifasini bajarganini ko'rish mumkin [Hamroyeva. 2023, 44].

Rashididdin Vatvot "Hadoyiq us-sehr" asarida radif va ridf tushunchalarini qiyosiy o'rganadi. Radif – fors adabiyotida qofiyadan keyin keluvchi bir yoki bir necha so'zdan iborat takrorlanuvchi qism ekanligini qayd etadi [Rashididdin Vatvot, 1985, 164]. Rashididdin Vatvot arab adabiyotida radif mavjud emasligini ta'kidlab, uning qo'llanishi fors adabiyotiga xos xususiyat ekanligiga ishora qiladi. Bu fikr Rashididdin

Vatvotga qadar ham bir necha forsiy risolalarda keltirilgan bo'lib, arab qofiyasida radifning mavjud bo'lmaganligi, radif fors adabiyotining ixtirosi ekanligi ta'kidlangan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, radif masalasi va uning badiiy adabiyotdagi o'rni turkiy adabiyotda yanada kengaydi va takomillashdi. Turkiy qofiyashunoslikda radif alohida hodisa sifatida qarala boshlandi. Buning asosiy sabablaridan biri turkiy tilning gap qurilishi bilan bog'liq. Turkiy tilda kesimning gap so'ngida kelishi va urg'u odatda gapning oxiriga tushishi hodisasi kuzatiladi. Demakki, shoir o'zi ifodalagan kechinma va badiiy maqsadining asosini qofiya va radifda aks ettiradi. Radifning misra so'ngida kelishi va aynan takrordan iborat bo'lishi shoir maqsadining badiiy yechimi bo'lishi bilan birga she'rning asosiy qonuniyatlaridan biri bo'lmish ohangdorlikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, Navoiy ijodida radifning bir qancha badiiy vazifalar bajarganini ko'rish mumkin:

Meni ishqdin man' etar soda **shayx**,
Dema soda shayx, aytkim loda **shayx**.
May ustidagi xascha qilma hisob,
Agar su uza solsa sajjoda **shayx**.

Ko'rinib turibdiki, Navoiy shayx obraziga e'tibor qaratgan. Shayx so'zining radif sifatida kelishi g'azalda boshdan oyoq shayxning ta'rif va sifatilari keltirilishiga ishora qiladi. Shoir soxta va riyokor shayxlar kirdikorlarini g'azal baytlari orqali tadrijiy ko'lamda birma-bir ochib tashlaydi. Demakki, radif – shayx so'zi g'azalda kompozitsiyasida ta'kid bilan birga gap qurilishining butun mazmunini ko'tarib turuvchi urg'uga ham ega bo'lgan. Shoirning 10 baytdan iborat ushbu g'azalida shayxning 11 sifati *soda, loda, sajjoda, uftoda, xoda, omoda, odamiyzoda, boda, ozoda, moda, soda* qofiyadosh so'zlar orqali ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan. Shoirning badiiy mahorati va muhim yangiligidan biri shuki, shoir bu sifatlarni ayni qofiyada keltirgan, bu esa yuqori ohangdorlik bilan birga urg'uning vazifasini ham kuchaytirgan.

Turkiy tilning gap qurilishida kesim odatda gapning oxirida kelishi kuzatiladi. Navoiy turkiy tildagi bu qonuniyatdan unumli foydalangan, shoir g'azallarining aksariyatida fe'l so'z turkumiga oid so'zlar radif vazifasini bajargan. Radif sifatida keltirilgan fe'llar ba'zan mustaqil fe'l sifatida, ba'zan qo'shma fe'lning tarkibiy qismi sifatida g'azal ohangdorligi bilan hamohang mazmunga ham katta ta'sir ko'rsatgan:

Hush chun may bazmi ichra dilsitonimdin **ketar**,
Tobi jismimdin hayot ozurda jonimdin **ketar**.
Bazmdin usruk chiqibkim, otlanur oliftavor,
Hush boshimdin, xirad vahmu gumonimdin **ketar**.

Rindona ruhda bitilgan ushbu g'azaldagi ketar radifi oshiqning ahvolidan xabar berish barobarida bu holat natijasida uning ruhiy dunyosi, jismoniy olamida qanday o'zgarishlar bo'lishini ifodalab kelyapti.

Zulfung ochilib orazi diljo' bila **o'ynar**,
Hindu bachae sho'xdurur su bila **o'ynar**.
Ul sho'x ko'ngul lavhin etib tiyra nafasdin,
Bir tifldur, alqissaki ko'zgu bila **o'ynar**.

Radif sifatida tanlangan har bir so'z g'azal mohiyati va ruhini o'zida aks ettiradi. G'azal tanlangan so'zning mazmuni asosida yoziladi. Navoiyning yuqoridagi "Ketar" radifi bilan yozilgan g'azalida tasavvufiy va rindona mazmuni ketar so'zi bilan bevosita bog'liq bo'lsa, shoirning "O'ynar" radifi bilan yozilgan g'azalida yengil ohang va mazmundagi o'ynoqi tuyg'ular ifodasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Zulfning ochilib ketib

yuz bilan o'ynashi, zulf va yuzning tazod asosidagi hindu bachcha va suvga o'xshatilishi, zulfning shamoldagi sho'x va o'ynoqi harakati, bolaga o'xshatilishi va bolaga xos bo'lgan ko'zgu (yuz) bilan o'ynashi jarayonlari shoir tomonidan mahorat bilan tasvirlangan. Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda radif g'azalning butun mohiyatini aks ettirib turibdi.

Alisher Navoiy ijodida radifning ishtiroki janr imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlangan. Shoir g'azallariga e'tibor qilinadigan bo'lsa, g'azallarda radifning yig'iq, bir so'zdan iborat shakli ko'proq qo'llangan. Navoiy g'azallarida orasida muraddaf g'azallar salmoqli hajmga ega bo'lib, Navoiy ijodida radif muhim ahamiyatga ega unsurlardan hisoblanadi. Xususan, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidan o'rin olgan g'azallarining deyarli teng yarmi (1294 g'azal) radif qo'llangan baytlardan tashkil topgan [Sirojiddinov, 2018, 446].

Navoiyning kichik lirik janrlarida radif va uning vazifasi, qo'llanish doirasi o'zgarganini kuzatish mumkin. Ruboiy va uning qo'llanishi jihatidan ruboiylar yetakchi o'ringa ega. Shoir ruboiylarida radifning yoyiq shakli va uning qo'llanish doirasi kengaygan.

Yo rabki, inoyatingni yor **ayla manga**,
Yo'qluqqa hidoyatingni bor **ayla manga**,
Ham kahfi kifoyatingni dor **ayla manga**,
Ham durri inoyating nisor **ayla manga**.

Taronayi ruboiy shaklida yozilgan ushbu ruboiyda *yor, bor, dor, nisor* qofiyadosh so'zlariga **ayla manga** so'zi radif sifatida bog'langan. Radifning takrori esa ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Kunduz ko'rsang o'zungni mahzun, **qadah ich**,
Andoqki, quyosh ravshanu mavzun **qadah ich**.
Ul damki, quyosh botti, shafaqgun **qadah ich**,
Jomingni qilib nechukki gardun, **qadah ich**.

Ushbu ruboiydagi **qadah ich** radifi shoir aytmoqchi bo'lgan fikrining yorqin ifodasi sifatida ta'kid ma'nosini ifodalagan.

Jondin **seni ko'p sevarmen, ey umri aziz**,
Sondin **seni ko'p sevarmen, ey umri aziz**.
Har neniki, sevmak andin ortuq bo'lmas,
Andin **seni ko'p sevarmen, ey umri aziz**.

Ko'rinib turibdiki, ruboiy misralarining aksariyat qismi radifdan iborat, *jondin, sondin, ondin* qofiyadosh so'zlaridan keyingi *seni ko'p sevarmen, eyo umri aziz* – 6 so'zdan iborat radif ruboiy ohangdorligini ta'minlashga xizmat qilgan. Shoir o'z ma'shuqasiga bo'lgan sevgisini tadrijiy holatda ko'rsatish maqsadi bilan *jondin, sondin, ondin* so'zlariga asosiy e'tiborni qaratgan.

Dilbaro, sendin bu g'amkim, **menda bordur, kimda bor?**
Furqatingdin bu alamkim, **menda bordur, kimda bor?**
Mazrayi ayshim ko'karmaydur samumi ohdin,
Yo'qsa yoshdin muncha namkim, **menda bordur, kimda bor?**
Qo'yma minnatkim, yuzumdek pok yuz hech kimda yo'q,
Buyla ishq pok hamkim, **menda bordur, kimda bor?**

Shoir ushbu g'azali o'ziga xos uslubda yozilgan bo'lib, bir bayt tarkibida qofiya, hojib, radif bir butunlikda aytilayotgan fikrga kuchli ta'kid berayotgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir tomondan tanlangan radif ham vazn imkoniyatlari jihatidan 7

bo'g'inli ikki rukn holida keltiriladi. Tilshunoslikda ma'noni kuchaytirish maqsadida gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari o'zaro almashinib qo'llanish hodisasi mavjud. Navoiy ham radifda kuchli ta'kid ma'nosidagi darak gap mazmunini so'roq gap shakli orqali ifoda etgan.

Dilbaro, sen/din bu g'amkim, /**menda bordur, / kimda bor?**

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Furqatingdin/ bu alamkim, / **menda bordur, /kimda bor?**

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Navoiy lirik merosining barcha janrlari ham shaklan, ham mazmunan mukammal bo'lib, janrlar taraqqiyoti bevosita shoir nomi bilan bog'liq. Navoiy janr imkoniyatlari, misra va bayt kompozitsiyasi qonuniyatlariga to'liq amal qilgan. Xususan, shoir ruboiyda radifning qo'llanishi muhim ekanligini amaliyotda isbotlab bergan. Navoiyning birgina "G'aroyib us-sig'ar" devoni tarkibidagi 133 ruboiydan 81 tasida radif qo'llangan va ularning aksariyat qismi yoyiq radifdan iborat. Bu o'rinda shoir ruboiyning vazn imkoniyatlaridan ham unumli foydalangan. Hazaj bahrining axrab va axram shajaralarida yozilishiga kerak bo'lgan 24 vazn uchun mutanosib radif keltirish orqali radifning bayt strukturasida o'rni katta ekanligini isbotlagan.

Ko'z birla / qoshing yaxshi, / qabog'ing **yax/shi,**

- - V / V - - V / V - - - / -

Yuz birla/ so'zing yaxshi, / dudog'ing **yax/shi.**

- - V / V - - V / V - - - / -

Eng birla/ menging yaxshi, / saqog'ing **yax/shi,**

- - V / V - - V / V - - - / -

Bir-bir ne/ deyin, boshdi/n ayog'ing **yax/shi.**

- - V / V - - V / V - - - / -

(Hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar)

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Navoiy lirikasining barcha janrlarida radifdan unumli foydalanilgan. Shoirning fardlarida ham radif va uning o'rni muhim ahamiyatga ega. Xususan, "Favoyid ul-kibar" devoni tarkibidagi 86 farddan 21 tasida radif qo'llangan. Ma'lumki, fard didaktik va axloqiy-falsafiy xulosalar asosida yoziladigan janr bo'lib, janrdagi mazmun radif imkoniyatlarini biroz cheklab qo'yadi. Shu sababli Navoiy fard va qit'alarida radifdan kamroq foydalanilgan. Buning asosiy sabablaridan biri janrga yuklatilgan mazmuniy yuk bilan bog'liq. Mazmundagi yuk janr xususiyatini tashkil qiladi. Ikkinchi tomondan fard kichik hajmli janr bo'lgani, qofiyada erkinlik borligi bois radifga ehtiyoj sezilmaydi.

Ohdinkim, har biri bir arsay motamcha **bor,**

Uksudi umrum, nedinkim, har biri yuz damcha **bor.**

Navoiyning "Xamsa" dostonlarida ham muraddaf baytlar salmoqli hajmga ega. Bu muraddaf baytlardan barcha dostonlarda birdek foydalanilmagan. Bu holat dostonlar mohiyati va syujet tizimi bilan bog'liq. Xususan, "Hayrat ul-abror" dostonida 1306, "Farhod va Shirin" dostonida 999, "Layli va Majnun" dostonida 595, "Sab'ai sayyor" dostonida 1250, "Saddi Iskandariy" dostonida 1936 bayt miqdoridagi baytlar radifli shaklda keltirilgan[Sirojiddinov, 2018, 447]. Agar doston hajmidan kelib chiqiladigan bo'lsa, "Hayrat ul-abror" dostonida muraddaf baytlarning kelishi ko'p uchraydi. Demakki, shoir aytmoqchi bo'lgan axloqiy-nazariy fikrlarni kitobxonga ta'kidlab etkazib berishni maqsad qilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiy lirik merosida vazn, badiiyat, qofiya bilan birga radifning o'rnini ham muhim ahamiyatga ega. Shoir radifga juda katta vazifalar yuklagan, fors adabiyotining ixtirosi sifatida baholangan radifning turkiy adabiyotdagi o'rnini yaqqol ko'rsatib bera olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. TAT.10 jildlik. 1-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
2. Alisher Navoiy. Badoye' ul-vasat. TAT. 10 jildlik. 3-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
3. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. TAT. 10 jildlik. 2-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
4. Atoulloh Husayniy. Badoyi' us-sanoyi' (Forschadan A.Rustamov tarjimasi) – T., 1981. – B.398
5. Hamroyeva O. Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. – T: BOOKPRINT, 2022. –B. 155.
6. Hamroyeva, O. J. (2022). CLASSIFICATION OF FINE ARTS IN" HADOYIQ US-SIKHR". Scientific reports of Bukhara State University, 2022(1), 47-56.
7. Jalolovna, H. O. CORRELATION BETWEEN THE SCIENCE OF RHYME AND THE SCIENCE OF BADE'. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 181.
8. Jalolovna, H. O. (2023). SHAMSIDDIN KAYSI RAZI'S" AL-MO'JAM FI MAOYIRI ASH'AR UL-AJAM" IS AN IMPORTANT SOURCE OF POETICS. Academia Repository, 4(11), 81-86.
9. Насируддини Тўсий. Ми'йар ал-аш'ор. / Ҳозиркунандаҳои чоп У.Тоиров, М.Абдуллоев, Р.Ҷалол. –Душанбе: Ориёно, 1992. – С.122
10. Рашид ад-дин Ватват. Хада'иқ ас-сеҳр фи дақа'иқ аш-ши'р. Перевод с персидского и комментарий и факсимиле Н.Ю.Чалисова. – М.: Наука, 1985. – С.164.
11. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O., Navoiyshunoslik. Darslik. – T.: Tamaddun. 2018. – B. 446.
12. Shamsi Qaysi Roziy. Al-Mo'jam fi ma'oyiri ash'oru-l-ajam. – Dushanbe: Adib, 1991. – Sah. 161.
13. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balog'a. (Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev, J.Jo'rayev) – T.: MUMTOZ SO'Z. 2016. – B. 244.

XALQ MAYDON KULGI SAN'ATI BELGILARINING NAVOIY IJODIDAGI KO'RINISHLARI

Rajabova Ma'rifat Baqoyevna

Filologiya fanlari doktori, professor, Buxoro davlat universiteti

marifat.bakaeva@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/MZSO6966

Annotatsiya. *Xalq maydon kulgi san'ati jamoatchilikning ijodiy faoliyatini namoyon etuvchi muhim maydon bo'lib, u nafaqat madaniy, balki ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Navoiy o'z asarlarida xalq kulgisini, uning simvolik va estetik xususiyatlarini inobatga olgan holda, insonning ichki dunyosi va ijtimoiy munosabatlarini aniq va ta'sirli tasvirlagan. Maqolada xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *xalq maydon kulgisi, askiya san'ati, hazil, mutoyiba, mazox, "Mahbub ul-qulub".*

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Түркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBLOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622